

INGLIZ TILI DARSLARDA TURLI METODLARDAN FOYDALANISH

Halimova Nafisa Murodovna

Buxoro viloyati Buxoro shahar kasb hunar maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish, til o'rganuvchilarga til materialini metodikasini tushuntirish, ta'linda ijobjiy yangilanishlarga sabab bo'lgan qonun haqida to'liq bayon etiladi.

Kalit so'zlar: metodika, pedagogik tamoyillar, ijobjiy yangilanishlar, innovatsion usullar.

Kirish:

Bu go'yoki, sog'lom g'oyaga o'xshaydi, ammo ko'pchilik o'qituvchilar tomonidan e'tibordan chetda qoladigan narsa. Siz bu yoshda bilishingiz kerakki, o'quvchilar hali ham qalam tutishni, qaychidan foydalanishni o'rganishadi yoki hatto birinchi tilni o'rganishadi. Yosh o'quvchilarning mana shu yosh o'rtasidagi zudlik bilan takomillashini ko'rish juda samarali bo'lishi mumkin, lekin siz juda sabrli bo'lishingiz zarur. Shunday qilib, mening birinchi maslahatim, siz boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berishdan zavq olishingiz zarur. Agar sizda juda cheklangan tajribaga ega bo'lsangiz yoki o'zingizni noqulay his etsangiz, unda siz ushbu muhitga hech qachon ko'nikmasligingiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Bolalar umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi sinfidan boshlab chet tillarini o'rganishga harakat qilishadi. O'lchanadigan va samarali natijalarga olib keladigan to'g'ri o'qitish metodikasini topish unchalik oson emas. Dunyoning ayrim davlatlarida ta'limning hamma darajalari uchun eng keng tarqalgan yondashuv an'anaviy usuld hisoblanadi. An'anaviy sinflarda o'qituvchi bolalar bilan faol ishlaydi, turli xil faoliyat turlarini tanlaydi: yozish, o'qish, takrorlash. Ammo, kamchilik shundaki, talabalar soni ko'p bo'lganligi sababli o'rganilgan materialning muvaffaqiyat darajasini tekshirish har doim ham to'g'ri emas.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin, yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan intilishi kengaydi va mamlakatimiz tomonidan til o'rganishga ko'pgina sharoitlar yaratilmoqda.

Dastlabki prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir".

Ayniqsa, ijobjiy yangilanishlarga sabab bo'lgan qonunlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida" PQ-1875-soni Qarori hisoblanadi. Mana shu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'qitish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan intilishink yanada takomillashtirish uchun hamam umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini har xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarining og'zaki nutqini ham shakllantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamонави, innovatsion usullar yordamida o'tish bosqichma-bosqich boshlandi.

Natijalar:

Oxirgi vaqtarda ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi insonlar soni kundan-kun juda oshmqoda. Chunki, hayot jarayonida ingliz tilini tushunmasdan yashash tobora murakkablashib bormoqda. Lekin til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq.

Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirib olishini isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining til o'rganish uchun yetarliligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablarida hisoblanadi.

Ingliz tilini ma'noli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin:

• Ko'rish yordamida xotirada eslab qolish Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan narsalarini eslab qoladi. Shunday ekan, darsni har xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar yordamida, ko'zga ko'rindigan va kundalik hayotda ko'p foydalaniladigan narsa, buyumlarga yozish yordamida yangi lug'atlarni o'rgatish va o'rgangan yangi lug'atlar ishtirokida turli gaplar tuzish.

Masalan, daftar (copybook), stul (chair), doska (blackboard), ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik turmushda juda ko'p foydalanadigan ushbu narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va har doim qo'llanishi sabab, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

Muhokama:

• Ingliz tili o'qitish metodikasining, umumiyligi (nutqiy yo'nalganlik, chegaralab va yaxlit o'rgatish, mashqlar yechish, til tajribasini e'tiborga olish), xususiy (nutq namunasi yordamida ingliz tili o'qitish, til mashqi va nutq amaliyoti bog'liqligi, nutq faoliyati turlarining o'zaro bog'liqligi, og'zaki nutqning ilgarilashi, chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish, ibridoiy bosqichni yanada takomillashtirish), maxsus (grammatikani o'rgatish, leksikani o'rgatish, o'qishni o'rgatish va ingliz tili o'rgatishda nutq yozishni qo'llash) tamoyillari ishlab chiqilgan. Biz pedagogik

tamoyillarni jamlashtirishda chet tillarni boshlang‘ich ta’limda o‘qitishga kommunikativ yondashuvni nazarda tutdik.

Maktablarda xorijiy til o‘qitish metodikasi o‘quv fanini o‘rganish, mustaqil o‘zlashtirish jarayonida ta’limning bakalavr bosqichi talabalaridan o‘rta umumta’lim maktab, bolalarga chet til o‘qitish metodikasidan amaliy bilimlarni egallah talab qilinadi.

1. Nazariy bilimlarni egallah bo‘yicha talablar quyidagilardan iborat:

-Boshlangich sinflarda chet til o‘qitish metodikasining maqsadi, vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, metodik tushunchalar, vositalar, metodlar, tamoyillar, usullar, mashqlar tizimini to‘liq bilish;

-til o‘rganuvchilarga til materialini metodikasini tushuntirish;

- chet tilida nutq faoliyati turlarini eshitib anglash, gapirish, o‘qish va yozuv malakalarini o‘rgatishni samarali bilish;

-chet tili o‘qitish jarayonini rejallashtirish, tashkillashtirish, dars rejasi tuzish va reyting tizimini bilish.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, maktablarda xorijiy til o‘qitish metodikasi fani o‘qitish jarayonida talimning an’anaviy va interfaol o‘qitish usullardan ishlatiladi Amaliy mashg‘ulotlar og‘zaki va yozma tarzda tashkil etilishi ko‘zda tutiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitish mobaynida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan, shuningdek, ko‘rgazmali slaydlarni kompyuter yordamida namoyish etish, elektron materiallarni proektor yordamida tasvirga chiqarish vositalaridan ishlatiladi. Fanning amaliy mashg‘ulotlarida talimning innovatsion, interfaol metodlari, hamda ekspress-so‘rovlari, aqliy hujum, ajurli arra, munozara, kichik guruhlarda ishslash, menuy, debat kabi metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «CHet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1875-son Qarori. – Xalq so‘zi. – № 240 (5660). – Toshkent, 2012.

2.Umumiyl o‘rta ta’lim maktablari uchun ingliz tili o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: J. J. Jalolov, M. T. Irisqulov. – Xalq ta’limi. – №4 – Toshkent, 2013. – 44 b.

3.Tillar bo‘yicha umumiyl Evropa ma'lumotnomasi: o‘rganish, o‘qitish, baholash. – M.: MGLPU. Sarma, 2005. - 248 b.

4. Celce-Murcia M., Brinton D.M., Snow A.M. Teaching English as a Second or Foreign Language. – USA. Boston. National Geographic Learning. 2014. – 706 p.

5.Zimnya I.A. Maktabda chet tillarini o‘rgatish psixologiyasi. -M.: Ma'rifat, 2001. - 228 b.